

a) ota-onaning, F_1 va F_2 ning genotipini va fenotipini aniqlang;

b) F_2 necha xil fenotip hosil qiladi?

d) ular orasida yumaloq yashil, uzunchoq chipori nechta?

5. No'xat donining sariq rangi (A) yashil rangi (a), tekisligi (B) burishganligi (b), gultojibargining qizil rangi (C) oq rangi (c) ustidan dominantlik qiladi. Quyidagicha genotipga ega formalarni chatishtirish natijasida hosil bo'lgan no'xatning fenotipini aniqlang:

a) AaBbCc aabbcc

b) AaBbCC aaBBCC;

52- §. 7- laboratoriya mashg'uloti. G'o'za, pomidor, nomozshomgulning chatishtirish natijasini gerbariy asosida o'rganish

Ishning maqsadi: o'quvchilarga irsiylanishga oid bilimlarni gerbariy asosida mustahkamlash.

Kerakli jihozlar: g'o'za, pomidor, nomozshomgulning har xil navlaridan tayyorlangan gerbariyalar, g'o'zaning oq, qo'ng'ir, mallarang, novvotrang tolalari, pomidorning turli shakl va rangdagi mevalari.

Ishning borishi: O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruh alohida o'simliklar ustida ishlab, ish natijalarini e'lon qilib, himoya qiladi.



1. Pomidor o'simligining har xil navlari gerbariyalarini o'rganib chiqing. Dominant, retsessiv belgilarini aniqlang, poya, barg, meva shakllarini o'rganib chiqing va taqqoslang.
 2. G'o'za o'simligini har xil navlaridan tayyorlangan gerbariyalarni o'rganib chiqing. Dominant, retsessiv, oraliq belgilarini aniqlang. Tola ranglarini turlicha bo'lish sababini o'rganing.
 3. Nomozshomgul o'simligini qizil, oq, pushti gulli navlarini gerbariyalar asosida o'rganing. Poya, barg, gul tuzilishini taqqoslang.
- Ish natijalari asosida quyidagi jadvalni to'ldiring.